

С целью дальнейшего совершенствования системы социальной защиты населения и широкого внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в эту сферу в 2021 году в республике был запущен «Единый социальный реестр», который позволил полностью автоматизировать процесс предоставления социальных выплат. Внедрение этой системы позволило полностью автоматизировать процесс назначения пособий. Система автоматически собирает данные о доходах, имуществе, составе семьи и наличии безработных через межведомственную интеграцию с системой «Электронное правительство». Это повысило адресность помощи, исключило человеческий фактор и минимизировало коррупционные риски при назначении выплат.

Для дальнейшего развития системы социальной защиты целесообразно:

- консолидировать все государственные социальные расходы в рамках единого бюджета системы;
- внедрить принципы бюджетирования, ориентированного на результат.
- укрепить институциональную базу и разработать четкие критерии оценки эффективности использования средств Национальным агентством социальной защиты.

#### **Использованная литература:**

1. Нурмухамедова Б.И. Финансовые аспекты социальной защиты населения в Узбекистане // *Moliya, pul va kredit*. – 2025. – Том 5. – С. 272-278. – <https://mpkjournal.com/index.php/MPK/article/view/109>

2. Фуқаролар учун бюджет. // *Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг Ахборот нашри*. <https://openbudget.uz/api/v2/info/file/f953b2c8d5aa369ffbc954fcb6e66d74>

3. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана. <https://president.uz/ru/lists/view/8834>

4. Нурмухамедова Б.И. Ижтимоий ҳимоя соҳасини молиявий таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари. // *“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali*. – 2025. – Том 4. – С. 205-215.

5. *Byudjetnoma - 2026-2028. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг Ахборот нашри*. 78-б.

6. Закон Республики Узбекистан “О государственном социальном страховании” № ЗРУ-1101от 09.12.2025 г. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.12.2025 й., 03/25/1101/1135-сон.

## **AHOLINI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA BYUDJET SOLIQ TIZIMINI OQILONA BOSHQARISHDAGI USTUVOR MASALALAR**

**Alimov Umid Xamid o'g'li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi,*

**M.Rustamov, i.f.d. prof.**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Bank ishi” kafedراسи mudiri*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti globallashuv jarayonlarda tobora jadallashib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, davlat moliyaviy tizimini mustahkamlash hamda aholining iqtisodiy bilim darajasini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarning

*moliyaviy savodxonligi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Moliyaviy savodxonlik jamiyatning iqtisodiy madaniyatini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Shu bilan birga, davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan byudjet va soliq tizimini samarali boshqarish ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'zlar.** *Moliyaviy savodxonlik, byudjet boshqaruvi, soliq tizimi, iqtisodiy barqarorlik, davlat moliya siyosati, jamg'arma va investitsiya, O'zbekiston iqtisodiyoti, moliyaviy ta'lim, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy siyosat*

Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, daromad va xarajatlarni boshqarish hamda iqtisodiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy faollik ham yuqori bo'ladi. Chunki fuqarolar bank xizmatlaridan faol foydalanadi, jamg'armalar yaratadi va tadbirkorlik faoliyatini boshlashga intiladi. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik darajasining oshishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi yuqori bo'lsa, ularning mablag'lari rasmiy moliya tizimi orqali iqtisodiyotga jalb etiladi. Bu esa investitsiya imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bank tizimi faoliyatini takomillashtirish va moliyaviy xizmatlarni kengaytirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan plastik kartalar, mobil to'lov tizimlari va onlayn bank xizmatlarining rivojlanishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Masalan, 2024-yilda mamlakatda amalga oshirilgan to'lovlarning qariyb 40 foizi naqd pulsiz shaklda amalga oshirilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 43 foizga yetdi undan tashqari bugungi kunda bu ko'rsatkich salmog'i yanada oshmoqda. Natijada fuqarolar o'z mablag'larini yanada qulay va xavfsiz boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Moliyaviy savodxonlikning oshishi davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Fuqarolar iqtisodiy jarayonlar haqida yetarli bilimga ega bo'lsa, ular soliq to'lash, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish hamda investitsiya jarayonlarida faolroq ishtirok etadi. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarning oshishiga va iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. U davlat daromadlari va xarajatlarining rejalashtirilgan tizimini ifodalaydi. Davlat byudjeti orqali ijtimoiy soha, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda iqtisodiy rivojlanish dasturlari moliyalashtiriladi. Shu sababli byudjet mablag'larini samarali taqsimlash va ulardan oqilona foydalanish iqtisodiy siyosatning muhim vazifalaridan biridir. O'zbekistonda davlat byudjeti boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, moliyaviy intizomni kuchaytirish hamda byudjet mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, "Soliq" mobil ilovasidan foydalanuvchilar soni 2025-yilga kelib 14,5 milliondan oshdi va ular orqali soliq to'lovlari hamda fiskal cheklarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari ancha soddalashtirildi. Davlat moliya boshqaruvida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish byudjet jarayonlarining ochiqligini oshirishga xizmat qilmoqda. Soliq tizimi ham davlat byudjetini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Soliq tizimining samarali faoliyat yuritishi davlat daromadlarini barqaror ta'minlash bilan birga, iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga ham xizmat qiladi. Adolatli va shaffof soliq siyosati tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq tizimini soddalashtirish, soliq stavkalarini optimallashtirish hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar iqtisodiy muhitni yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet-soliq tizimini samarali boshqarish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy bilimga ega bo'lgan fuqarolar o'z daromadlarini oqilona boshqarish, jamg'arma shakllantirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, davlat byudjeti va soliq tizimining samarali faoliyat yuritishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish, soliq tizimini takomillashtirish va moliyaviy boshqaruvda shaffoflikni kuchaytirish orqali iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish mumkin. Kelajakda moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish, soliq tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat moliya boshqaruvida zamonaviy mexanizmlarni joriy etish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash va aholining farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *Abdusalilova, D. & Shamsitdinova, X. (2025). Aholini moliyaviy savodxonligini oshirish va budjet-soliq siyosatiga strategik yondashuvni takomillashtirish. Nashrlar, 4(1), 319–321.*
2. *Xidirov, N. G. & Olqarova, Z. N. (2024). Davlat moliyasi va aholi moliyaviy savodxonligi: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting.*
3. *Muradova, D. (2024). Moliyaviy savodxonlikni o'rgatish: global tajribalarni O'zbekiston maktablariga moslashtirish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.*
4. *Yuldasheva, U. & Negmurodova, M. (2025). Davlat budjeti daromadlari va ularning shakllanish manbalari. Tadqiqotlar.*
5. *Pulatova, M. B. & Abdulatipova, R. Sh. (2024). Yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. Science and Education.*
6. *Urunov, N. M. (2025). Turistlar uchun moliyaviy savodxonlik: O'zbekiston va boshqa davlatlar o'rtasidagi taqqoslanma tahlil. Tadqiqotlar.*
7. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-2024 yillarda davlat moliyasini boshqarish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori (506-son, 24.08.2020).*
8. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" (PF-60, 28.01.2022).*
9. *Zokaityte, A. (2017). Financial Literacy Education: Edu-Regulating our Saving and Spending Habits. Palgrave Macmillan. (Chet ellik moliyaviy savodxonlik ta'limi bo'yicha kitob).*
10. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari.*